

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/2025.27.12.Tar.01.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

G‘OYIBNAZAROV ISO SHAKAROVICH

**O‘ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING SOLIQ SIYOSATI VA
UNING OQIBATLARI (1917-1945-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

G‘oyibnazarov Iso Shakarovich

O‘zbekistonda sovet hokimiyatining soliq siyosati va uning oqibatlari
(1917-1945 yillar).....3

Гойибназаров Исо Шакарович

Налоговая политика советской власти в Узбекистане и ее последствия
(1917-1945 годы)25

Goibnazarov Iso Shakarovich

Tax Policy of Soviet Power in Uzbekistan and its Consequences
(1917-1945)51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/2025.27.12.Tar.01.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

G‘OYIBNAZAROV ISO SHAKAROVICH

**O‘ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING SOLIQ SIYOSATI VA
UNING OQIBATLARI (1917-1945-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.1.PhD/ Tar 267 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://ik-tarix.nuu.uz>) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Oblomurodov Naim Xalimovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yermetov Avazbek Abdullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Mo'minov Nozim Gafforovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc. 03/2025.27.12.Tar.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 5.10 15.09 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti, 1-qavat, 106-auditoriya). Tel.: (+99871) 227-12-24; faks: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (200 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Bosh bino. Tel.: (+99871) 236-46-55; faks: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "22" "09" kuni tarqatildi.
(2026-yil "27" "02" dagi 11/14 -raqamli reyestr bayonnomasi).



X.E.Yunusova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, tarix fanlari doktori, professor

J.E.Tog'ayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kотиби, falsafa doktori (PhD), dotsent

N.U.Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix
fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asrda jahon miqyosida soliq tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar soliq va soliqqa tortish mexanizmlarini yangicha asoslarda rivojlantirish, davlatning byudjet tizimini shakllantirishdagi rolini oshirish va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Bu borada davlatlarning budjet, moliyaviy stavka va ko'rsatkichlarini oshirish, soliq imtiyozlari va davlat xarajatlarini optimallashtirish, progressiv soliq yukini qo'llash, soliq imtiyozlarining yangicha loyihalarini shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, har bir davlat o'z mahalliy shart-sharoitlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos soliq tizimini shakllantiradi va ularni zamonaviy asoslarda rivojlantiradi. Dunyo miqyosida soliqlar va soliqqa tortish tizimida sodir bo'layotgan jadal o'zgarishlar soliq tushumlari orqali davlatlarning ishonchli byudjet jamg'armalarini shakllantirib, ularni moliyaviy-institutsional jihatdan rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi ilmiy tadqiqot markazlarida soliq sohasiga oid to'plangan nazariy-metodologik tamoyillar, soliqlar tarixi va ularning zamonaviy mexanizmlari bo'yicha to'plangan amaliy tajribalardan samarali foydalangan holda soliqlarning nazariy-konseptual asoslari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini tug'dirmoqda. O'z navbatida, soliq sohasida sodir bo'layotgan jarayonlarni tarixiy manbalar, ilmiy asarlar, statistik ma'lumotlar hamda arxiv materiallariga tayangan holda tadqiq etish vazifasini qo'ymoqda. Bu esa kelajakda sohani yanada rivojlantirish borasida zarur xulosalar chiqarishga, uning alternativ strategik imkoniyatlarini ishga solishga, qonuniy asoslarini ishlab chiqishga hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, so'nggi vaqtlarda O'zbekistondagi jadal islohotlar davlat boshqaruvini takomillashtirishni, unda sifat jihatidan o'zgarishlarni yuzaga keltirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: "Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"¹, – deganida haq edi. O'zbekistonda barcha sohalar qatori o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixini xolis o'rganish soliq tizimining sovet davridagi holatini, hukumatning O'zbekistonda olib borgan soliq siyosati oqibatlarini ilmiy tadqiq etish, o'sha davrda davlatning soliq tizimidagi siyosatining xarakterini ro'yi-rost ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixini obyektiv yoritish nuqtayi nazaridan ushbu sohani haqqoniy hamda xolisona yaratishga xizmat qiladi. Tadqiq etilayotgan masalaning alohida olingan dissertatsiya mavzusi sifatida ilmiy o'rganilishi, tizimning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini, balki sovet davridagi soliq tizimining holatini obyektiv o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-fevraldagi F-5214-son "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Ijtimoiy gumanitar fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. – Toshkent, 2021. 19-yanvar // <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-ijtimoiy-gumanitar-fanlar-rivoji-zamondan-ortda-qolmoqda/> (Murojaat qilingan sana: 16.12.2025).

Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”da sohaga oid boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyat ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi” dasturi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda soliq sohasi o‘zining uzoq tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlariga ega. Bunda barcha tarixiy davrlar qatori sovet davriga oid soliqlar tarixi ham alohida e‘tiborga molikdir. Dissertatsiyada mavzuga oid adabiyot va tadqiqotlarni quyidagi uch guruhga bo‘lgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq deb topildi: sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar; mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar va xorijiy mualliflarning asarlari².

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sovet hokimiyatining O‘zbekistonda olib borgan soliq siyosati va uning oqibatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, quyidagilar dissertatsiyaning asosiy vazifalari qilib belgilandi:

mavzuning manbaviy asoslari va tarixshunosligini ochib berish;

sovet hokimiyati hukmronligining dastlabki davrida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va soliq siyosatidagi o‘zgarishlarni yoritish;

Turkiston ASSRda “Harbiy kommunizm” siyosati davrida soliq boshqaruvining harbiy manfaatlariga bo‘ysundirilishi va uning oqibatlarini tadqiq etish;

Turkiston ASSR, XXSR va BXSReda soliqlarning sovet tuzumi tartiblarga moslashtirilishi hamda ularning natijalarini tahlil qilish;

1925-1939-yillarda O‘zbekistonnig moliya tizimini markazlashtirilishi jarayonida soliq sohasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar va ularning oqibatlarini tadqiq etish;

Ikkinchi jahon urushi yillarida soliq tizimining harbiy maqsadlarga moslashtirilishi masalalarini o‘rganish;

soliq sohasida kadrlar masalasidagi murakkabliklar va uning oqibatlarini ko‘rsatib berish.

Tadqiqot obyektini sovet hokimiyatining O‘zbekistonda olib borgan soliq siyosati va uning xarakteri masalalari tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti. Sovet hokimiyati yillarida soliq tizimidagi ziddiyatlar, muammolar, markazning soliq sohasini o‘zgartirish borasidagi siyosati va oqibatlariga

² Mavzuning o‘rganilganlik darajasi tadqiqotning 1.1. paragrafidan batafsil yoritilgan.

oid masalalar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiylik, tarixiylik, xolislik (obyektivlik), tarixiy tahlil va qiyosiy taqqoslash, tarixiy xronologik ketma-ketlik tamoyillaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida olib borilgan iqtisodiy siyosat va o'lkadagi ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi, moliya sohasining manbayi bo'lgan soliqlarni tizimli tartibga solinishiga ta'sir etgani, natijada aholidan undiriladigan yangi soliqlar joriy qilinganligi, soliqlarni undirishda markaziy boshqaruv siyosati bo'lganligi aniqlangan;

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan jamoalashtirish jarayonining soliq siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi oqibatida tovar aylanmasidan olinadigan soliq, foydadan ajratmalar, daromad va aholidan undiriladigan soliqlarning doimiy ravishda o'zgarib turganligi, ayrim hollarda ularning miqdori oshirilishi davlatning asosiy moliyaviy daromad manbayiga aylanganligi isbotlangan;

XX asr 30-40-yillarida soliqlar va boshqa majburiy yig'implarni yig'ib olishda asosiy daromad turlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi solig'i hududiy jihatdan yerning unumdorligi, bozorlarga yaqinligi nuqtayi nazardan o'zaro farqlanganligi, sohalarga ixtisoslashtirilganligi, Toshkent va Samarqand viloyatlarida soliq miqdori yuqori bo'lganligi dalillangan;

soliq sohasida kadrlar masalasi doimiy ravishda muammo bo'lganligi, bilimli va malakali xodimlarning yetishmaganligi, sohadagi kadrlarning (jumladan, rahbar xodimlarning) tezkor almashinuvi, kadrlarning katta qismi markazdan yuborilganligi, ularning qo'nimsizligi hamda tajribasizligi soliq tizimida tub o'zgarishlar bo'lishiga salbiy ta'sir qilgani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sovet hokimiyatining O'zbekistonda olib borgan soliq siyosati tarixiga oid ma'lumotlar Soliq qo'mitasi "Soliqlar tarixi" muzeyi fondlarini yangi ma'lumotlar va ekspонатlar bilan boyitishga xizmat qilgan.

Markazning O'zbekistonda olib borgan soliq siyosati (1917-1945-yillar misolida) ilk bor yaxlit ilmiy tadqiqotda umumlashtirilib, soliqlar tarixini o'rganish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda ilmiy ishning maqsadlaridan kelib chiqib, zarur taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgani hamda amaliyotga tatbiq etilgani bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, qator tarixiy adabiyotlar va manbalardan foydalanilgani, birlamchi manbalarga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati, fanlararo sohalarda (tarix, iqtisodiy nazariya, arxivshunoslik, manbashunoslik) yangicha ilmiy innovatsion ishlanmalarni yanada rivojlantirishga xizmat qilgani, mavzuga oid zarur ilmiy xulosalar ishlab chiqilgani, oliy ta'lim muassasalari darslik va o'quv qo'llanmalarini nazariy jihatdan boyitishga xizmat

qilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalaridan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ruxsatnomasi asosida 2022-yilda chop etilgan "O'zbekiston tarixi" darsligini yozishda va Toshkent soliq texnikumi "Maxsus fanlar" kafedrasidan o'qitiladigan "Soliq nazariyasi va tarixi" o'quv fani doirasida tarixiy manba sifatida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda soliq tizimi va uning oqibatlariga oid ilmiy tadqiqotlar asosida:

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va soliq tizimining ahvoli, "Harbiy kommunizm" va "Yangi iqtisodiy siyosat" davrida soliqlar masalasi hamda Yer-suv islohoti va jamoalashtirish yillarida O'zbekistonda soliq tizimidagi o'zgarishlarga oid ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020-yil 14-avgust 418-sonli buyrug'i asosidagi 418-026-sonli guvohnomasiga muvofiq nashr etishga taqdim etilgan "O'zbekiston tarixi" darsligida manba sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 20 martdagi 02/01-08-28-sonli ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalarida O'zbekiston tarixini o'rganish orqali talabalarda mazkur sohadagi kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga erishilib, "60111100 – Tarix ta'lim yo'nalishi"ning malaka talabi mazmunini oshirishga xizmat qilgan;

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan jamoalashtirish jarayonining soliq siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi oqibatida aylanmadan olinadigan soliq, foydadan ajratmalar, daromad va aholidan undiriladigan soliqlarning doimiy ravishda o'zgarib turganligi, ayrim hollarda ularning miqdori oshirilishi davlatning asosiy moliyaviy daromad manbayiga aylangani borasidagi xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvining ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 31-yanvardagi 06-31-202 sonli ma'lumotnomasi). Natijalar teletomoshabinlarning mavzu doirasidagi bilimlarning kengayishiga erishilgan;

O'zbekistonda sovet hokimiyatining soliq sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tartiblari va markazning monopoliya siyosati, soliqlarning sovet tuzumi tartiblariga moslashtirilishi, soliq sohasidagi ziddiyatlar va ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda soliq tizimining urush manfaatariga bo'ysundirilishi masalalariga oid ma'lumotlardan Toshkent soliq texnikumi "Maxsus fanlar" kafedrasidan o'qitiladigan "Soliq nazariyasi va tarixi" o'quv fanida tarixiy manba sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 14-maydagi 05.№01-45954-sonli ma'lumotnomasi). Natijada "Soliq nazariyasi va tarixi" o'quv fani doirasida o'quvchilarda sovet hokimiyatining O'zbekistonda olib borgan soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va oqibatlari haqida keng ko'lamli ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam bergan;

Tadqiqotda aks etgan sovet hokimiyatining O'zbekistonda olib borgan soliq siyosati va uning oqibatlari, jumladan, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va soliq tizimidagi muammolar haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi"

telekanalida eʼfirga uzatilgan “Taqdimot” koʻrsatuvining ssenariysini yozishda foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 31-yanvardagi 06-31-202 sonli maʼlumotnomasi). Natijada koʻrsatuvning ilmiy saviyasi hamda ijtimoiy-maʼnaviy va tarbiyaviy ahamiyati oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jurnallardagi maqolalarda, shu jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy konferensiya handa seminarlarda muhokamadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 14 ta ilmiy ish chop qilingan. Shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatyasi, eʼlon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Sovet hokimiyati hukmronligining dastlabki yillarida Turkistonda soliq tizimi, mavzuning manbaviy asoslari va tarixshunosligi”** nomli bobning **“Mavzuning manbaviy asoslari va tarixshunosligi”** deb nomlangan birinchi paragrafida manbalar mazmun-mohiyatiga qarab quyidagi uch guruhga boʻlib tahlil qilindi: 1) arxiv hujjatlari; 2) meʼyoriy-huquqiy hujjatlar toʻplamlari; 3) davriy matbuot materiallari. Birinchi guruh manbalariga Oʻzbekistonda sovet hokimiyatining soliq siyosatiga oid davlat organlarining Oʻzbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan bir qator hujjatlarini kiritish mumkin³. Ular orasida tadqiqotni olib borishda R.1-fond, R.25-fond, R.49-fond, R.37-fond, R.93-fond, R.837 – fondlarida saqlanayotgan hujjatlar muhim rol oʻynadi⁴. Sababi ushbu fondlardan tadqiqot davri, yaʼni 1918-1924-yillarda oʻlkada mavjud boʻlgan davlatlar Turkiston ASSR, Xorazm va Buxoro Respublikalaridagi soliq siyosati, bu tizim faoliyatining hududlarga xos xususiyatlari, shuningdek, Oʻzbekiston SSR tashkil etilganidan soʻng soliq sohasida amalga oshirilgan oʻzgarishlar, qishloq xoʻjaligi va sanoatlashtirish jarayonida soliq yigʻimi masalalari, Ikkinchi jahon urushi yillarida soliq tizimining front manfaatlariga moslashtirilishi hamda kadrlar masalasidagi murakkabliklar bilan bogʻliq jarayonlar haqida qimmatli maʼlumotlar olindi.

Ikkinchi guruh manbalariga Turkiston ASSR MIQ va XKS, Oʻzbekiston SSR

³ OʻzMA, R-86- fond, OʻzMA, R-2454-fond, OʻzMA, R-49-fond., OʻzMA, R-58-fond, OʻzMA, R-73-fond Xorazm Xalq Sovet Respublikasi iqtisodiy kengashi fondi kabilardagi hujjatlardan foydalanildi.

⁴ OʻzMA, R-837-fond, OʻzMA, R-93-fond, OʻzMA, R-86-fond, OʻzMA, R-58-fondi, OʻzMA, R-1-fondi, OʻzMA, R-49-fond, OʻzMA, R-58-fond, OʻzMA, R-73-fondlarida saqlanayotgan hujjatlar.

MIQ tomonidan qabul qilingan me'yori-huquqiy hujjatlar, ya'ni qonunlar, qarorlar, nizomlar, farmoyish va ko'rsatmalarni kiritish mumkin⁵.

Bu hujjatlarda sovet hukumati tomonidan O'zbekiston hududida soliq sohasida olib borilgan siyosatning huquqiy jihatlari, davlat budjeti va moliya bilan bog'liq qaror, farmon va farmoyishlarning soliq yig'imidagi o'zgarishlarga ta'siri kabi masalalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Uchinchi guruhga o'sha davrga oid matbuot nashrlarida chop etilgan davriy materiallarni kiritish mumkin. Ular qatoriga Qizil O'zbekiston, Toshkent haqiqati, Pravda (Правда), Izvestiya (Известия), Iqtisodiy xabarlar, Finansovaya gazeta (Финансовая газета), Ekonomicheskaya gazeta (Экономическая газета), Finansi i narodnoye khozyaystvo (Финансы и народное хозяйство) kabi nashrlar kiradi. Ularda O'zbekiston SSRda soliq siyosatiga oid maqolalar nashr etib borilgan⁶. Tadqiqot jarayonida arxiv hujjatlari, o'sha davrga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va davriy matbuot materiallari o'zaro taqqoslanib, ilmiy ishni yoritishda foydalanildi.

O'zbekistonda soliq sohasi o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, unda sovet davriga oid soliqlar tarixi ham alohida e'tiborga molikdir. Ushbu paragrafda mavzuga oid adabiyot va tadqiqotlarni quyidagi uch guruhga bo'lgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq deb topildi: *sovet davrida* nashr etilgan adabiyotlar; *mustaqillik yillarida* amalga oshirilgan tadqiqotlar va *xorijiy* mualliflarning asarlari.

Birinchi guruhda o'z qamrovi va xronologik davri hamda tarixiy nuqtayi nazardan mavzuga yaqinroq ishlar qatorida sohaning turli qirralarini qamrab olgan sovet davridagi adabiyotlar⁷ hamda ilmiy tadqiqot⁸ ishlarini keltirish maqsadga

⁵ TASSR MIQ ning 1921-yil 24-maydagi "Ayirboshlash to'g'risida" gi qonuni, 1922-yil 30-yanvardagi "Sanoat solig'i to'g'risidagi Nizom", "Savdo korxonalari razryadi to'g'risidagi jadval", "Choyxonalardan soliq undirish to'g'risidagi Nizom", "Ro'yxatdan o'tmagan korxonalar to'g'risidagi Nizom", "Kino uylari va cherkovlardan soliq undirish to'g'risidagi Nizom", "Yakka shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi uyushmalar to'g'risidagi ko'rsatma"; 1922-yilda Tamg'a yig'im ustavi, 1924-yil Aktsiz solig'i to'g'risidagi Nizom, 1924-1925-yillarda shahar aholisidan daromad solig'i olish to'g'risidagi qonunlari, 1928-yil 21-apreldagi "Yagona qishloq xo'jalik solig'ining yangi asoslari to'g'risida"gi qaror, 1929-yil 8-fevraldagi "Yagona qishloq xo'jalik solig'i va o'rta hol dehqonlar soliqlarini yengillashtirish to'g'risida"gi qonuni, 1929-yil 20-fevraldagi "Quloq xo'jaliklarida mehnat to'g'risidagi Kodeksni qo'llash to'g'risida"gi qaror, 1929-yil 21-maydagi "Mehnat qonuni Kodeksini qo'llash lozim bo'lgan quloq xo'jaliklari belgilari haqida"gi qarori, 1932-yilda qabul qilingan "Yakka xo'jaliklar solig'i" to'g'risidagi qonuni, 1930-yilda O'z SSR XKS ning "Qorako'chilik xo'jaliklarini soliqlardan ozod qilish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston SSR XKS ning 1930-yil 25-avgustdagi №133-sonli "Notarial yig'imga ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 1930-yil 4-oktyabrdagi №153-sonli "Sanoat solig'ini qayta joriy etish to'g'risida"gi qaror, 1941-yil 3-iyuldagi "Vaqtinchalik yuz foizli soliq to'g'risida"gi SSSR Oliy Sovet Prezidiumining maxsus qarori. Ular O'zMAning R-837-fond, 6-ro'yxat, 481-yig'majild, O'zMA, R-1-fond, 1-ro'yxat, 553-yig'majild, O'zMA, R-86- fond, 1-ro'yxat, 2687-yig'majildlarida saqlangan.

⁶ Қизил Ўзбекистон, 1937. №15-09 сон; Правда, 1930. №13-сон ва б.

⁷ Залесский М.Я. Налоговая политика советского государства в деревне. – Москва: Госфиниздат, 1940; Хромов П.А. Экономическое развитие России в XIX-XX веках. – Москва, 1950; Пискотин М.И. Налоги сельского населения в СССР. Правовые вопросы. – Москва, 1957; Лившиц Я.И. Монополия в экономике России. – Москва, 1961; Суворов В.А. Туркестанский экономический район в условиях НЭП а. (1921-1925 гг.). – Ташкент: Фан, 1968; Ковальченко И.Д., Малов Л.В. Всероссийский аграрный рынок XVIII-нач XX вв. – Москва, 1974; Алимов И.А. Узбекское дехканство на пути к социализму. – Ташкент, 1974; Шамов А.А. Территориальные управления хозяйства. – Москва, 1984; Тур В.А., Авдошина Е.А. Населению о налогах. – Москва: Финансы и статистика, 1988.

⁸ Собиров Х.Р. Туркистон Совет Социалистик Республикаси давлат бюджети (1918-1924 йй). Иктисод фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1949; Обломуродов Н Помощ трудящихся Узбекистана в востановлении народного хозяйства и учреждений культуры освобождённых районов СССР в годы великой отечественной

muvofig.

Ushbu adabiyotlarda sovet hokimiyati oʻrnatilgandan soʻng mamlakatda soliq sohasida yuritilgan siyosat, bu boradagi hukumat qarorlari va unga doir amalga oshirilgan chora-tadbirlar, bevosita soliq tizimi va uning tarkibiy tuzilishi, ularni undirib olish, davlat xazinasiga tushirish usullari, shuningdek, iqtisodiyot va davlat monopolistik kapitalizmining soliq sohasidagi siyosatini tarixiy, iqtisodiy hamda siyosiy tahlilari ochib berilgan.

X.R.Sobirov oʻz dissertatsiyasida 1918-yilda tashkil topgan Turkiston ASSR byudjetini belgilashda hukumatga soliqlar va zayomlar chiqarish huquqlarining berilishi, bu tadbirlar yangi sinfiy munosabatlar asosida amalga oshirilsa-da, aholidan soliq olishda sinfiy yondashuv nazarda tutilmaganligi, bunday holat mahalliy tadbirkorlar tomonidan keskin tanqid qilinishiga sabab boʻlganligi hamda ushbu yoʻnalishdagi bahsli masalalarga qator oʻrinlarda toʻxtalib oʻtadi. Uning fikricha, "...byudjet tushumlarining asosiy qismi yirik savdogarlar va boshqa boy qatlamlar zimmasiga yuklanishi, davlat byudjeti xarajatlari koʻpayganligi hisobiga soliqlarning turi va miqdorini ishlab chiqarish korxonasi, xoʻjalik subyekti, uning faoliyat koʻrsatish mexanizmi, daromadlari miqdoriga mos soliq solish tizimini shakllantirish zaruratini tugʻdirgan edi"⁹.

Oʻzbekistonning davlat mustaqilligi eʼlon qilinganidan keyin nashr etilgan *ikkinchi guruhga* kiruvchi adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar ham mazmuni jihatidan xilma-xil boʻlib, ular iqtisod, tarix va boshqa soha vakillari tomonidan amalga oshirilganligini qayd etish maqsadga muvofiq.

Bu guruhga kiruvchi adabiyotlar¹⁰, ilmiy tadqiqot ishlari¹¹ va maqolalarda¹² oʻlkada sovet hokimiyati oʻrnatilganidan soʻng joriy etilgan soliq turlari, ularning yigʻib

войны (1942-1945 гг. На материалах РСФСР, Украинской ССР и Белорусской ССР). Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1981.

⁹ Собиров Х.Р. Туркестан Совет Социалистик Республикаси давлат бюджети (1918-1924 йй). Иқтисод фан. номз. ... дисс. автореф. – Ташкент, 1949. – С. 12-13.

¹⁰ Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917-1937. – Ташкент: Фан, 1992; Гатауллин Ш.К. Солиқлар ва солиққа тортиш. – Тошкент, 1996; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Руководитель проекта Д.Алимова / Коллектив авторов. Р.М.Абдуллаев, С.С.Агзамходжаев, И.А.Алимов и др. – Ташкент, 2000; Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликлари талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари. Масъул маҳаррир: Д.Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2000; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб, Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Масъул маҳаррир: М.Жўраев. – Тошкент: Шарқ, 2000; Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоклаштириш сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари. – Тошкент, 2001; Жўраев Ш., Бобоев С. Маҳаллий солиқлар тарихи. – Бухоро, 2004; Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Тошкент, 2009; Ўзбекистон тарихи. Иккита жилд. Масъул муҳаррирлар: Абдуллаев Р., Рахимов М., Ражабов Қ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019; Дусчанов Р. Ўзбекистонда совет давлатининг солиқ сиёсати (1946-1991 йй). Монография. – Тошкент, 2023; Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Биринчи жилд (1900-1939). – Тошкент: Фан, 2024.

¹¹ Озерова Н. Г. Дехканство Туркестана в условиях перехода к НЭП у (1921-1924 гг). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1997; Режаббоев Н. Совет ҳокимиятининг Туркистондаги озиқ-овқат сиёсати ва унинг оқибатлари (1917 -1924 йй.). Тарих фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2020; Дусчанов Р. Ўзбекистонда совет давлатининг солиқ сиёсати. (1946-1991 йй.). Тарих фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022; Toshmatov Sh. Sovet hokimiyatining oʻzbek qishloqlaridagi soliq siyosati (1917-1936-yillar). Tarix fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Fargʻona, 2026.

¹² Дусчанов Р. Икинчи жаҳон уруши йиллари совет давлатида солиқлар ва уларда белгиланган тартиблар / "Ўрта Осиё халқлари тарихининг долзарб масалалари" мавзусидаги Халқаро илмий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 299-300; Тошматов Ш. "XX асрнинг 20-йилларида Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида совет давлатининг солиқ сиёсати" // Ўтмишга назар, 2021. Том. 4. – № 8. – Б. 77-82.

olinishi, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan o‘zgarishlar jarayonida soliqlarning holati, aholining soliqqa tortilishi va uning oqibatlari tahlil etilgan.

Shu davrga tegishli ilmiy izlanishlar qatorida tadqiq etayotgan mavzuga yaqin ishlar tadqiqotchi R.Duschanov tomonidan amalga oshirilgan. Muallif o‘zining maqolalari, shuningdek, “O‘zbekistonda sovet davlatining soliq siyosati (1946-1991-yy)” nomli monografiyasi va ilmiy tadqiqot ishida, ikkinchi jahon urushidan so‘ng O‘zbekistonda sovet davlatining soliq siyosatini davriy matbuot ma‘lumotlari va arxiv materiallari asosida tahlil etgan¹³. Ilmiy tadqiqot ishi davriy jihatdan keyingi yillarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lsada, mazkur ishdagi ma‘lumotlardan tadqiqot jarayonida kerakli o‘rinlarida foydalanildi va u ilmiy ishning nazariy-metodologik jihatdan yanada boyishiga xizmat qildi.

Mazmun-mohiyati va tarixiy jihatdan mavzuga yaqin bo‘lgan yana bir asar N.Oblomurodov hamda F.Tolipovlarning “O‘zbekistonda soliqlar tarixi” nomli monografiyasidir. Ushbu kitobda O‘zbekiston hududida qadimgi davrlardan mustaqillik yillarigacha bo‘lgan davrlarda soliq tizimining shakllanishi va rivojlanishi, ularning turlari, miqdori, soliqlar va boshqa yig‘imlarni davlat hamda uning tegishli tuzilmalari tomonidan yig‘ib olinishi bilan bog‘liq masalalar tahlilida, sovet davrida soliq tizimining xarakteri, o‘zgarishi, ularning ortib borishiga turtki bo‘lgan omillar va oqibatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mujassamlashgan¹⁴.

Mavzuga tegishli adabiyotlar qatorida Sh.Jo‘rayev, S.Boboyevlarning “Mahalliy soliqlar tarixi” risolasida soliqlar va yig‘imlarning qadimdan to bugungi davrgacha iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni, ularning mohiyati hamda yig‘ib olish usullari, soliq yig‘imlarining funksiyalari, natijalari, izohlari, tizimdagi ziddiyatlar tadqiq etilgan¹⁵.

Uchinchi guruhga tegishli xorijiy adabiyotlarda ham o‘lkada sovet hukumati o‘rnatilganidan keyin Turkistondagi soliq siyosati, uning davlat manfaatlariga bo‘ysundirilishi bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan. Bu borada Rossiya Federatsiyasida ko‘plab izlanishlar olib borilgan¹⁶ va bir qator adabiyotlar nashr etilgan¹⁷.

Soliq siyosati bilan bog‘liq masalalar qo‘shni davlatlar, xususan, Qozog‘iston¹⁸,

¹³ Дусчанов Р. Ўзбекистонда совет давлатининг солиқ сиёсати. (1946-1991 йй.). Тарих фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022.

¹⁴ Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Тошкент, 2009. – Б. 154.

¹⁵ Жўраев Ш., Бобоев С. Маҳаллий солиқлар тарихи. – Бухоро, 2004. – Б. 72.

¹⁶ Молчанов А. История становления налогового дела и налоговой политики в России. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Москва, 2000; Фурсов К.А. Имперская экономическая политика в русском Туркестане и Британской Индии: сходства и различия // Восток (Oriens), 2010. – № 6; Масальская М.В., Евсикова Д.В. Исторические аспекты налогообложения в России и их влияние на современную налоговую систему // Вестник Алтайской академии экономики и права, 2020. – № 11-3. – С. 514-518. URL: <https://vaael.ru/ru/article/view?id=1456>; Малахова, Н.Ю. Эволюция налоговой политики России: от истоков к современности / Н.Ю.Малахова // Молодой ученый, 2024. – № 9 (508). – С. 251-253. URL: <https://moluch.ru/archive/508/111660..>

¹⁷ Толкушкин А.В. История налогов в России / А.В.Толкушкин. – Москва: Юрист, 2001; Гензель П.П. Налогообложение в России времен НЭПа: избранные статьи / П.П.Гензель. – Москва: Общество купцов и промышленников России, 2006. История налоговой политики России: конец XIX, XX и начало XXI столетия / Ред. И.В.Каравеева. – Москва: Наука, 2008; Адамс, Ч. Влияние налогов на становление цивилизации: пер. с англ. / Ч.Адамс. – Москва: Социум Челябинск: Мысль, 2018.

¹⁸ Нурумов А. Налоги Республики Казахстан и развитых стран. – Алматы, 2005. – 216 с.; Почекаев Р. Эволюция налогообложение в Казахстане // Право в современном мире, 2013. – С. 174-188; Коллектив авторов. Налог и налогообложение. – Сарыколь, 2023.

Qirg'iziston¹⁹ va Tojikiston Respublikalarida²⁰ ham o'rganilgan bo'lib, bu tadqiqotlarda o'lkada bolsheviklar hokimiyati o'rnatilganidan so'ng hududlarda soliq tizimining o'zgarib borishi, sovet hukumati tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan undirilgan soliqlar va soliq sohasi bilan bog'liq boshqa turli masalalar tahlil etilganini kuzatish mumkin.

Umuman mavzuga tegishli adabiyotlarning tahlili shundan dalolat bermoqdaki, sovet hukumatining O'zbekistondagi soliq siyosati va uning oqibatlarini (1917-1945-yillar oralig'idagi) alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida, tarixiy nuqtayi nazardan hali o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning birinchi bobining ikkinchi paragrafi "Sovet hokimiyatining dastlabki davrida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va soliq siyosatidagi o'zgarishlar" deb nomlangan bo'lib, unda XX asr birinchi choragida Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy xo'jalik va moliyaviy hayotidagi tub o'zgarishlar, sovet hokimiyat arafasi va uning dastlabki yillarida o'lkadagi moliyaviy vaziyat hamda soliq tizimi xususida so'z yuritilgan.

1917-yilda bolsheviklarning hukumat tepasiga kelishi bilan aholi turmush tarzi, xo'jalik hayoti va umuman ijtimoiy-iqtisodiy tizimda tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrda mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlash muhim muammolardan biriga aylandi. Hukumat esa xususiy mulkni bekor qilish, boylar sinfini tugatish, "jamiyatda tenglik o'rnatish" shiori ostida aholi (asosan, boy-badavlat mulkdorlar) qo'lidagi g'allani va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tortib ola boshladi. Shu maqsadda 1918-yil Turkiston XKSning oziq-ovqat bo'limi ochildi. 1918-yil 15-iyunda esa oziq-ovqat masalalarini hal etish uchun "Oziq-ovqat direktoriyasi" tashkil qilindi²¹. Direktoriya sovet hokimiyatining soliq tizimiga ham ta'sir qildi. Chunki barcha o'ziga to'q aholi qatlamlari ortiqcha mahsulot (oziq-ovqat) ni davlatga topshirishga majbur qilindi²². Shu bois sovet hukumati pul ko'rinishidagi soliqlar va boshqa majburiy yig'implarni undirishda moliyaviy monopoliyani bir muncha qisqartirishga majbur bo'ldi. Ammo direktoriya mahalliy shart sharoitlarni inobatga olmagan holda ish yuritdi²³.

1918-yil 20-aprelda sovetlarning V o'lka syezdida RSFSR bilan Turkistonning siyosiy va iqtisodiy munosabatlariga ko'ra Turkiston ASSR Konstitutsiyasi Turkistonga RSFSR tarkibida o'z budjetini belgilash, soliqlar tayinlash va zayomlar chiqarish huquqlarini bergan bo'lsada²⁴ barcha sohalarda bo'lgani kabi o'lkada soliqlar masalasidagi vaziyat ijobiy tomonga o'zgarmadi. 1918-yil 20-aprelda yangi tashkil

¹⁹ Кайимов А. Омурзаков С. Налоги и налогообложение в Кыргызской Республике. – Ош, 2008; Джапарова Н. Налоговая система Кыргызской Республики и пути ее реформирования // Реформа, 2003. – № 1. – С. 30-35; Курамаева Н.О. Становление налоговой системы Кыргызстана // Бюллетень науки и практики, 2019. Т. 5. – № 10. – С. 194-197.

²⁰ Иброхимов, И.Р. Совершенствование налогово-бюджетной системы Таджикистана // Экономика Таджикистана: стратегия развития, 2006. – № 6. – С. 62-70; Улугходжаева Х.Р. Основные тенденции формирования налоговой политики Таджикистана в переходный период: теория и практика. Дисс. ... д-ра эконом. наук. – Душанбе 2014; Тоджибоева Ф.Э. История развития налогов и налоговой системы // ВЕСТНИК НАУКИ, 2025. – № 11 (92). Том 2. – С. 86-100.

²¹ O'zMA, R-25-fond, 1-ro'uxat, 6-yig'majild, 273-varaq. Яна қаранг: Хайдаров М. Туркистон иктисодиётида "Ҳарбий коммунизм" сиёсати // Ўзбекистон тарихи, 2003. – № 3. – Б. 34.

²² O'zMA, R-93-fond, 1-ro'uxat, 71-yig'majild, 4-varaq.

²³ Хайдаров М. Туркистон иктисодиётида "Ҳарбий коммунизм" сиёсати // Ўзбекистон тарихи, 2003. – № 3. – Б. 34.

²⁴ Ражабова Р., Каримов Ҳ. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: 1994. – Б. 43-45.

topgan Turkiston ASSR da soliq tizimi faoliyati oldingi davrlardan tubdan farq qildi. Jumladan, soliqlar va boshqa yig'implarni nazorat qilish Moliya xalq komissarligi tarkibidagi Markaziy soliq boshqarmasi (MSB) ning asosiy vazifasi qilib belgilandi²⁵. Jumladan, Turkiston ASSR to'g'risidagi Nizomda ko'rsatilishicha Markaziy soliq boshqarmasi unga bo'ysungan barcha soliq idoralari bilan birgalikda ish olib borgan va unga o'z tuzilmalari doirasida soliq yig'implarini nazorat qilish hamda boshqaruv borasida tegishli vakolatlar berilgan²⁶.

Jumladan, Nizomning 52, 53, 57, 62-moddalarida Markaziy soliq boshqarmasiga taqdim etilgan vakolatlar ko'rsatib o'tilgan. Uning 53-moddasida to'g'ridan-to'g'ri soliqlar va poshlinalar yig'ishni umumiy nazorat qilish belgilangan bo'lib, undan tashqari yana quyidagi vakolatlar berilgan:

- daromad soliqlari va natural soliqlarni yig'ish;
- sanoat soliqlarini yig'ish va tushumini nazorat qilish;
- ko'chmas mulklardan davlat soliqlarini undirish;
- mahalliy maqsadli soliqlarni yig'ish;
- gerb yig'implari va boshqa tushumlarni to'plash;
- to'g'ri soliqlar va davlat poshlinalarini yig'ish;

– soliq va yig'implarni tashkillashtirishga mas'ulligi belgilangan²⁷. Bu borada Turkiston MIQning 1922-yil 11-apreldagi “Natura solig'i to'g'risidagi” qarori qabul qilinishi yanada ahamiyatli bo'ldi. U 8 xil natura solig'idan tashkil topgan bo'lib, qishloq xo'jalik mahsulotining barcha oziq-ovqat turlari hamda yem-xashakni ham qamrab oldi²⁸. Chorvador aholiga nisbatan “o'tov solig'i” joriy qilindi²⁹.

Xullas, o'lkada sovet hokimiyati o'rnatilganidan keyin ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida amalga oshirilgan o'zgarishlar, jumladan, mulkdorlar sinfini tugatish, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarga nisbatan qat'iy nazoratning o'rnatilishi, soliq tizimining markazlashtirilishiga, turli ko'rinishdagi soliq va yig'implarning ko'payishiga olib keldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston hududida o'tkazilgan iqtisodiy o'zgarishlar jarayonida soliq siyosati va uning oqibatlari”** deb nomlanib, uning birinchi paragrafi *“Turkiston ASSRda “Harbiy kommunizm” siyosati davrida soliq boshqaruvining harbiy manfaatlariga bo'ysundirilishi”* deb atalgan. Ma'lumki, 1919-yilda joriy etilgan “Harbiy kommunizm” siyosati sanoatning natsionalizatsiya qilinishi, xususiy mulkni konfiskatsiya qilinishi, uni rekvizitsiya etilishi, bozorlarning yopilishi, tadbirkorlikning cheklanishi, iqtisodiyot va xo'jalik hayotni harbiy izga ko'chirilishida hamda armiya manfaatlariga bo'ysundirishida o'z ifodasini topdi. “Harbiy kommunizm” siyosati yillarida o'lkada quyidagi soliq turlari amalda bo'lgan: – yer soliqlari; – davlat tashkilotlari va diniy muassasalardan olinadigan soliqlar; – ijtimoiy soliqlar; – natural soliqlar; – ma'muriy organlardan olingan soliqlar; – ishlab chiqarish soliqlari va o'tov soliqlari shular

²⁵ O'zMA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 323-yig'majild, 31-33-varaqlar.

²⁶ O'zMA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 323-yig'majild, 31-varaq.

²⁷ O'zMA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 323-yig'majild, 31-32-varaqlar.

²⁸ Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). – Москва: Госиздат, 1921. – С. 82.

²⁹ Список населённых мест Самаркандской области. – Самарканд, 1926. – С. 65-69.

jumlasidandir³⁰.

“Harbiy kommunizm” siyosati davrida o‘lkada texnika ekinlari va paxta yetishtiruvchi xo‘jaliklar hamda yerlarga solingan soliq ortib bordi. Boy-badavlat aholi qatlamlari mol-mulki tortib olindi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi soliqlari ko‘paya bordi. Ma’lumotlarga qaraganda, Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida bunday soliqlar 1919-yil oxirlarida 425 ming rublga oshgan. Yana o‘sha ma’lumotlarga ko‘ra, ikki yil ichida qishloq xo‘jaligi soliqlarining ko‘lami Toshkent uyezdida 2 marta, Qo‘qonda – 2,5, Jizzaxda – 3, Xo‘jand uyezdida – 4 marta ko‘paygan. 1920-1921-yildan boshlab esa qishloq xo‘jalik, dehqonchilik, daromad, mulk, merosga doir va boshqa yig‘imlar, bojxona to‘lovlari, 1922-yildan esa aksiz solig‘i joriy qilindi³¹.

Aslida, mazkur soliqlar egri soliqlar deb atalib, iste‘mol tovarlariga aksiz tariqasida joriy etilib, ular davlatning barcha daromadlarining 10-20 %ni tashkil qilgan. Egri soliqlarga vino, aroq, tamaki mahsulotlari, gilza, asal, tuz, shakar, qahva, kovushlar ishlab chiqariladigan korxonalardan undiriladigan aksizlar, kinofilmlar namoyishi uchun soliq, kinoseanslar uchun sotilgan chiptalar savdosidan tushgan yig‘imlar ham kirgan³². Bu, shubhasiz, yangi tashkil etilgan xususiy savdo korxonalari uchun og‘irlik qilar edi. Shu bois xususiy shirkat egalari tomonidan aksiz solig‘i qoidalarini buzish holatlari tez-tez sodir bo‘lib turgan. Masalan, bir yilda faqatgina Samarqand viloyati bo‘yicha aksiz solig‘i qoidalarini buzishligiga oid – 774 ta qoidabuzarlik aniqlangan va ularga nisbatan protokollar tuzilgan; – 560 kishi ma‘muriy va boshqa javobgarliklarga tortilgan; – 207 kishining jinoiy ishi Xalq sudlariga yuborilgan; – 31 ta ishga nisbatan Xalq sudlari tomonidan jinoiy javobgarliklar belgilangan³³.

1920-yilda o‘lkada soliq tizimini markazlashtirish, yagona soliq siyosatini belgilash va eski an‘anaviy soliqlarni tugatish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etildi. Shu yili yangi soliq tizimi to‘g‘risidagi dekretning e‘lon qilinishi sababli, uni nazorat qilish bevosita to‘la davlat ixtiyoriga o‘tdi³⁴. Bu davrda Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari soliq tizimi Turkiston ASSR soliq tizimi bilan deyarli bir xil bo‘lgan. Ammo har ikkala davlatda ham xonliklar davridagi ushr, zakot soliqlari saqlanib qolgan bo‘lib, soliqlar, asosan, “amlokdor”lar tomonidan yig‘ib olingan³⁵. Bu davlatlarda tizimdagi asosiy muammolar esa quyidagilar edi:

- birinchidan, BXSR va XXSRda hamon Buxoro amirligi hamda Xiva xonligi davridagi ayrim o‘rta asr an‘anaviy soliq turlari saqlanib qolgan edi;

- ikkinchidan, har ikkala xonlik davridagi soliq tizimi qonun qoidalari BXSR va XXSR soliq tizimidagi tartiblar bilan qo‘shilib ketgan edi;

- uchinchidan, tizimda kadrlar muammosi mavjud bo‘lib, BXSR va XXSR dagi soliq tizimi kadrlarining to‘la komplektatsiya qilinmaganligi natijasida tizim bor-yo‘g‘i 30 % kadrlar bilan ta‘minlangan xolos. Qolgan 70 % kadrlar esa ishdan bo‘shagan yoki bo‘shatilgan;

- to‘rtinchidan, yig‘ib olingan soliqlarni banklarga topshirishda ham muammolar

³⁰ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 73-yig‘majild. 120-129-varaqlar.

³¹ O‘zMA, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘majild, 273- varaq.

³² Дусчанов Р. Ўзбекистонда совет давлатининг солиқ сиёсати (1946-1991 йй). Монография. – Тошкент, 2023. –Б. 19.

³³ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 73-yig‘majild, 129-varaq.

³⁴ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 73-yig‘majild, 111-112-varaqlar.

³⁵ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 202-yig‘majild, 1-varaq.

bo‘lib, ularni budjetga tushirishda tez-tez talon-tarojliklar sodir bo‘lib turgan³⁶. Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarida Markaziy Soliq Boshqarmasi quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lgan:

1. “Ushuri zakoti savaim” bo‘limi;
2. “To‘g‘ridan to‘g‘ri soliqlar” bo‘limi;
3. “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar” bo‘limi³⁷.

Tahlil etilayotgan davrda yangi soliq turlarining joriy qilinishi markazning ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlaridan biri bo‘ldi. XKS MIK ning “Harbiy soliq” ni undirish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra armiya va urushga chaqirilmagan, front ortida mehnat qilayotgan fuqarolardan daromad solig‘ining 75 %, bir yilda 200 rubl (rubl) miqdorida soliq undirilishi belgilandi³⁸. Ushbu soliq turi 18 yoshga to‘lgan va undan oshgan fuqarolar uchun tadbiriq qilinib, harbiy xizmatga chaqirilmagan bo‘lsa, harbiy soliqning 50 %ni to‘lar edilar³⁹. Ayniqsa, ishlab chiqarishning pasayishi, tovar aylanmasi va pul oborotining kamligi, pulning qadrsizlanishi, mulkdorlarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeining pasayishi natijasida pul shaklidagi soliqlarni ko‘zlanganicha yig‘ishga imkon bo‘lmay qoldi. Bu ularning natural tarzida yig‘ib olinishiga olib keldi. Shuningdek, egri va qo‘shimcha soliqlar salmog‘i vaqtincha pasaytirilib, ular 1920-yilda bekor qilindi. Jumladan, davlat ixtiyoriga sanoat mahsulotlari va buyumlaridan “Davlat foydasiga ustama olishni bekor qilish haqidagi dekret” aynan shu davrda qabul qilindi. Ammo 1921-yildan yana qishloq xo‘jalik, dehqonchilik, daromad, mulk, merosga doir boshqa bojlar, aksiz va bojxona to‘lovlari amalga kiritildi⁴⁰. Umuman, “Harbiy kommunizm” siyosati yillarida xususiy tadbirkorlik va erkin savdoning cheklanishi, bozorlarning yopilishi, yollanma mehnatning bekor qilinishi, oziq-ovqat razverstkasining joriy qilinishi kabilar naqd pul ko‘rinishidagi soliq tushumlari salmog‘iga ham ta’sir ko‘rsatdi⁴¹.

Dissertatsiyaning ikkinchi bob, ikkinchi paragrafi *“Turkiston ASSR, XXSR va BXSRda soliqlarning sovet tuzumi tartiblarga moslashtirilishi va ularning natijalari (1921-1924-yillar)”* – deb nomlangan. Ma’lumki, 1921-yil 21-martdan boshlab oziq-ovqat razverstkasini oziq-ovqat solig‘i bilan almashtirilishi va 1921-yil 24-maydagi “Ayirboshlash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi o‘lkada “Harbiy kommunizm” siyosatidan “Yangi iqtisodiy siyosat”ga o‘tish uchun asos bo‘ldi. “Yangi iqtisodiy siyosat”ga o‘tilishi munosabati bilan Turkiston iqtisodiy hayotida jonlanish sodir bo‘lishi bilan birga, soliqlar, ularning mohiyati va to‘lovida birmuncha o‘zgarishlar yuz berdi. Yangi iqtisodiy siyosat yillarida soliqlarning kamaytirilishi dehqonlarga o‘zini tiklab olish imkonini berdi, mahsulot ishlab chiqarish va erkin savdo tiklandi. Biroq yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsuloti butun mamlakatni to‘la ta’minlay olmas edi. Shu bois mamlakatda hali kartochka sistemasi amal qilar edi⁴².

³⁶ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 202- yig‘majild, 71-varaq.

³⁷ O‘zMA, R-58- fond, 1-ro‘yxat, 345-yig‘majild, 12-varaq.

³⁸ O‘zMA, R-837-fond, 6-ro‘yxat, 481-yig‘majild, 2-varaq.

³⁹ O‘zMA, R-837-fond, 1-ro‘yxat, 369-yig‘majild, 8-varaq.

⁴⁰ Жўраев Ш., Бобоев С. Маҳаллий солиқлар тарихи. – Бухоро, 2004. – Б. 47.

⁴¹ O‘zMA, 93-fond, 1-ro‘yxat, 73-yig‘majild, 117-119-varaqlar.

⁴² Маҳмудов М. Янги иқтисодий сиёсат йилларида ўзбек қишлоқларидаги ижтимоий-иқтисодий муносабатлар тарихидан (1925-1929 йиллар) // Academic research in educational sciences, 2020. Volume 1. Issue 3. ISSN: 2181-1385 // scientific journal impact factor (sjif) 2020: 4.804 academic research, uzbekistan 664 www.ares.uz.

1922-yil 1-yanvardan boshlab respublika aholisiga, ayniqsa, uning qishloqdagi qismiga og‘ir yuk bo‘lib tushgan “ochlik solig‘i” katta sinov bo‘ldi. Tarixiy faktlarga ko‘ra, birgina Farg‘ona viloyatining kambag‘al aholisidan 6600 pud turli mahsulotlar ana shu soliq yo‘li bilan undirib olindi. Haddan ortiq soliq yuki ko‘p ming kishilik qochoqlar oqimini shakllanishiga, ommaviy ochlikning yanada avj olishiga sabab bo‘ldi. Biroq 1923-yilning ikkinchi yarmidan boshlab ahvol birmuncha o‘zgara boshladi. Bu vaqtga kelib, nihoyat, yangi iqtisodiy siyosat mexanizimlari ishlab, qishloq xo‘jaligi va sanoat qayta tiklana boshladi⁴³.

“Yangi iqtisodiy siyosat” sharoitida sodir bo‘lgan qisman o‘zgarishlar va islohotlar tufayli 1922-yildan boshlab qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi aholidan olingan soliqlar o‘rniga 1923-yil 13-iyundan boshlab “Yagona qishloq xo‘jaligi solig‘i” joriy qilindi⁴⁴. Ushbu soliqni yig‘ish xalq komissarlari kengashlari, viloyat ijroiya qo‘mitalari va okrug ijroiya qo‘mitalari zimmasiga yuklanib, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha qo‘mitalar esa natura shaklidagi mehnat solig‘i, xo‘jalik solig‘i, qishloq xo‘jaligini tiklash uchun bir martalik soliq (fuqarolik solig‘i) va boshqa mahalliy soliqlarni yig‘ishga mas‘ul etib belgilandi⁴⁵.

1. Asosiy soliqlar: yagona qishloq xo‘jaligi solig‘i, sanoat solig‘i, kosibchilik solig‘i, patent yig‘imlari, savdo solig‘i, mulk solig‘i, renta yig‘imlari, gerb yig‘imlari, kanselyariya, notarial yig‘imlar va boshqalar.

2. Aksiz soliqlari: choy, shakar, tuz, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, yoqilg‘i mahsulotlari va boshqa turdagi tovarlarga nisbatan joriy etildi⁴⁶.

Ushbu soliqlar orasida qishloq xo‘jaligidan yig‘ib olingan soliqlar ulushi birmuncha baland bo‘lib, 1923-yilda qishloq xo‘jaligidan tushgan soliqlarning umumiy ulushi barcha daromadlarning 62,3 %ni tashkil etgan. Unga qo‘shimcha tarzda yana 1922-yilda “Tamg‘a yig‘imi” ustavi, 1923-yil iyunda “Sanoat solig‘i” joriy qilindi. 1924-yil “Aksiz solig‘i to‘g‘risidagi Nizom”, 1924-1925-yillarda esa “Shahar aholisidan daromad solig‘i olish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi⁴⁷.

BXSR va XXSR da 1922-yil 1-yanvardan boshlab 5 ta soliq turi (dehqonlardan 1/10 ulushida olinadigan ushr; chorvadan har 40 boshdan bir boshdan undiriladigan zakot; sarmoyaning 1/40 ulushini oladigan hunarmandchilik; har bir tanob sug‘oriladigan yerdan bir tanga (10 tiyin) olinadigan suv soliqlari; mol mulkdan esa 1/40 ulushi olinadigan kommunal (shahar) soliqlari joriy etildi⁴⁸. Natijada 1922-yilda davlatning turli tushumlardan olgan daromadi 1 mln. rublni, 1923-yilda 3 mln. rublni tashkil etdi. Bu birinchi jahon urushidan oldin amirlik davrida olingan soliq miqdoridan 10 %ga ortiq edi. Soliq to‘g‘risidagi qonunda aholidan soliq olishda sinfiy yondashuv nazarda tutilmagan edi. Bu hol Buxoro kompartiyasi rahbariyati tomonidan keskin tanqid qilinishiga sabab bo‘ldi. Ularning fikricha, byudjet tushumlarining asosiy qismi savdogarlar va boshqa “ekspluatator qatlamlar” zimmasiga yuklanishi lozim edi⁴⁹.

Umuman olganda, o‘lkada yangi iqtisodiy siyosat joriy etilganidan so‘ng ijtimoiy

⁴³ История гражданской войны в Узбекистане. Т. II. – Ташкент, 1970. – С. 261

⁴⁴ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 202-yig‘majild, 17-23-varaqlar.

⁴⁵ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 202-yig‘majild, 1-4-varaqlar.

⁴⁶ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 68-yig‘majild, 1-varaq.

⁴⁷ Обломуродов Н, Толипов Р. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Тошкент, 2009. – Б. 139.

⁴⁸ O‘zMA, R-93-fond, 20-ro‘yxat, 4-yig‘majild, 88-varaq.

⁴⁹ Нуруллин Р.А. Советы Туркестанской АССР в период гражданской войны. – Ташкент: Фан, 1965. – С. 137.

sohada ayrim ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, aslida soliq tizimida yangi yig‘im va turli ko‘rinishdagi yig‘imlarning oshishi kuzatildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistondagi iqtisodiy o‘zgarishlarning soliq siyosatiga ta’siri va sohadagi kadrlar masalasi (1925-1945-yillar)”**, deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi paragrafi *“O‘zbekistonda moliya tizimining markazlashtirilishi jarayonida soliq sohasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar (1925-1939-yillar)”* – deb atalgan. Unda O‘zbekistonda yer-suv islohoti yillarida sovet hokimiyatining ekspansiya siyosati, ya’ni aholining boy tabaqasi qo‘lidagi ortiqcha yerlar, yirik yer-mulklarni musodara qilish, ularga soliqlar solishga oid davlat siyosati yoritilgan.

Jumladan, tadqiqotlarga ko‘ra yer-suv islohoti yillarida hukumat soliq masalasida o‘z rejalarini puxta olib borganligini tasdiqlaydi. Soliqlar va yig‘imlar uchun ustama 1925-1926 byudjet yilida 137194 rubl qilib belgilangan bo‘lib, u amalda 156219 rublga, ya’ni 3,9 % oshig‘i bilan bajarilgan. Ammo o‘lkada qishloq xo‘jaligida mol-mulkni musodara qilish, katta mulk egalari yillarini tortib olinishi kabi tadbirlar oqibatida ziddiyatli holat davom etayotgan edi. Masalan, respublikada 1925-1926 byudjet yili uchun belgilangan davlat soliqlari uchun taqdim etilgan imtiyozlarga qaramasdan reja 100301 rublni tashkil etgan bo‘lib, u 78,4 %ga bajarilgan, xolos⁵⁰.

Yer-suv islohoti davridagi yana bir muhim soliq islohoti sifatida 1925-yildan e’tiboran bilvosita soliq undirish bo‘yicha aniq choralar ko‘rildi. Masalan, eng muhim mahsulot hisoblangan choy mahsuloti kontrabandasi bilan yoki uning noqonuniy savdosi bilan shug‘ullanganlar Moliya Xalq Komissarligi Konsnalog (egri soliq) boshqarmasi tomonidan nazoratga olindi. Endilikda, qonun buzilgan holatlarda mahsulotlar butunlay musodara qilinadigan bo‘ldi⁵¹. Shuningdek, soliqlar ichida eng yiriklari “kosibchilik solig‘i” va “aksiz soliq”lari bo‘lib, 1924-yilda “kosibchilik solig‘i” respublika byudjeti barcha daromadlarining 25-31 %ni takshil qildi⁵². Ushbu jadvalda 1925-1926-yilga oid soliq tushumlari ko‘rsatilgan⁵³.

T.R	Muddati	To‘g‘ridan to‘g‘ri soliqlar va gerb yig‘imlari	Qishloq xo‘jaligi soliqlari	Soliqsiz tushumlar	Bilvosita soliqlar
1	Iyul	668 000	10.000	115.000	1.598.000
2	Avgust	1.541.000	101.000	132.000	856.000
3	Sentyabr	1.717.000	1.168.000	75.000	862.000
4	Oktyabr	511.000	2.003.000	147.000	1.852.000
5	Noyabr	640.000	816. 000	119.000	989.000
6	Dekabr	1.183.000	2.489.000	122.000	962.000
7	Yanvar	1.081.000	745.000	118.000	935.000
8	Fevral	836.000	374.000	84.000	866.000
9	Mart	1.454.000	197.000	183.000	989.000
10	April	831.000	108.000	119.00	1.058.000
11	May	830.000	109.000	190.000	1.922,000
12	Iyun	977.000	45.000	109.000	1.093.000

⁵⁰ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 91-yig‘ma jild, 138-varaq.

⁵¹ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 73-yig‘ma jild, 37-varaq.

⁵² Жўраев Ш., Бобоев С. Маҳаллий солиқлар тарихи. – Бухоро, 2004. – Б. 45.

⁵³ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 152-yig‘majild, 11-varaq.

Yer-suv islohotini o'tkazish davomida o'lkada an'anaviy yer-suv munosabatlarining saqlanib qolayotganligi, mahalliy zamindorlarga tegishli mulklar, vaqf mulklari hamda noqonuniy (ro'yxatdan o'tmagan) yerlarning aniq hisob-kitobining yo'lga qo'yilmaganligi holatlari ko'p uchrab turgan⁵⁴. Masalan, birgina Toshkent viloyati Statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 1925-yilda esa 166 desyatina yerga noqonuniy ravishda tamaki ekilganligi aniqlangan⁵⁵. Vaholanki, 1920-1925-yillarda ushbu ekinni ekish va uni nazorat qilish "Turktabaka" uyushmasi tasarrufida bo'lsada, tamaki maydonalari soliqqa tortilmasdan qolayotgan edi. Shu bois O'zbekiston SSR MIQ 1925-yildan e'tiboran tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig'i joriy qilindi va undan anchagina daromad ham olingan⁵⁶.

Hukumat qishloq xo'jaligi soliq tizimidagi islohotlarni 1926-yil 22-fevralda O'zbekiston SSR MIQ ning "Qishloq xo'jalik va suv yig'implari bo'yicha paxtakorlarga imtiyozlar berish to'g'risida"gi qarorini qabul qilishdan boshladi. Bu qaror ijrosi va kuchi 1928-yilda ham saqlab qolindi⁵⁷. Masalan, yer-suv islohoti yillarida sug'orma dehqonchilik yerlariga tegishli soliq imtiyozlari 4 toifaga bo'lingan:

Birinchi toifa soliqlar (eng quyi toifa) – 1 desyatina yeri bor xo'jaliklar uchun joriy etilgan;

Ikkinchi toifa soliqlar (quyi toifa) – 1 desyatinadan 3 desyatinagacha yeri bor xo'jaliklar uchun joriy etilgan;

Uchinchi toifa soliqlar (o'rta toifa) – 3 desyatinadan ortiq, ya'ni 5 desyatinagacha yeri bor xo'jaliklar uchun joriy etilgan;

To'rtinchi toifa soliqlar (yuqori toifa) – 5 desyatinadan ortiq yeri bor xo'jaliklar uchun joriy etilgan⁵⁸. Ammo bu davrda soliq sohasi ish yuritish tizimida qator muammolar ham mavjud bo'lib, bu uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Eng muhimi sohada malakali kadrlar yetishmasligi soliqlar va boshqa yig'implarni yig'ib olishda hamda ularni rasmiylashtirishda talay muammolarni yuzaga keltirdi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi *"Ikkinchi jahon urushi yillarida soliq tizimining harbiy maqsadlarga moslashtirilishi"* – deb nomlangan bo'lib, unda urush yillarida hukumatning soliq siyosatidagi o'zgarishlar va soliqlarning urush manfaatlariga bo'ysundirilishi masalalari yoritilgan. Jumladan, urush yillarida soliq sohasidagi tub o'zgarishlardan biri 1941-yil 29-dekabrda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining qarori bilan "Harbiy soliq" yangidan joriy etilgani edi⁵⁹. "Harbiy soliq" ni 18 yoshga to'lgan fuqarolar to'laganlar. Bu borada R.Duschanovning yozishicha, harbiy soliqlar qanday stavka bo'yicha to'lanishi to'lovchilarning toifasi va ular oladigan daromadlarga bog'liq bo'ldi. Daromad oluvchi hunarmand, kosiblar ishchi va xizmatchilarga belgilangan soliq stavkasidan uch barobar ko'p soliq to'lar edilar. Respublika bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, Toshkent viloyatida har bitta xo'jalik a'zosi uchun to'lanadigan harbiy soliq 370 rublni tashkil etgan bo'lsa, bu Andijon viloyatida 480 rublni, Surxondaryo viloyatida 420 rublni, Xorazmda 350 rublni,

⁵⁴ O'zbekiston Milliy arxivining R-93-fondi hamda R-86, R-837-fondlarida saqlanayotgan manbalar.

⁵⁵ O'zMA, R-93-fond, 1-ro'yxat, 73-yig'majild, 117-119-varaqlar.

⁵⁶ O'zMA, R-93-fond, 1-ro'yxat, 73-yig'majild, 90-91-varaqlar.

⁵⁷ O'zMA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2687-yig'majild, 42-varaq.

⁵⁸ O'zMA, R-93-fond, 1-ro'yxat, 68-yig'majild, 12-13-varaqlar.

⁵⁹ O'zMA, R-837-fond, 6-ro'yxat, 481-yig'majild, 2-varaq.

Samarqandda 460 rublni, Farg‘ona viloyatida 360 rublni, Namangan viloyatida 460 rublni, Buxoro viloyatida 470 rublni, Qoraqalpog‘iston ASSRda 390 rublni tashkil etgan⁶⁰. Hukumat urush yillaridagi harbiy xarajatlarning bir qismini qoplash uchun “Mulk solig‘i”, “Qishloq xo‘jalik solig‘i” va “Daromad solig‘i” stavkalarini ham oshirdi⁶¹.

SSSR Moliya Xalq komissarligi Soliq va yig‘imlar Bosh Boshqarmasining 1941-yildagi №880-sonli qaroriga ko‘ra 1942-yildan e‘tiboran “Qishloq madaniy yig‘imi” ham joriy qilingan. Unga ko‘ra daromad manbalari bo‘lmagan kolxoz xo‘jaliklari qishloq madaniy yig‘imini 5 rubldan 10 rublgacha to‘lashlari majbur edi. Dehqonchilikdan daromadi bo‘lmagan, ammo 1942- yil 1-yanvargacha buzoq, qo‘zi, cho‘chqa bolasi, parranda, 2 tadan ortiq qo‘yi bo‘lmagan yoki 1 bosh echkisi bo‘lgan xo‘jaliklar 10 rubldan 40 rublgacha to‘laganlar⁶². Yana muhim tadbirlardan biri sifatida SSSR Oliy Sovet Prezidiumining 1942-yil 10-apreldagi “Ayrim mahalliy soliqlar va yig‘imlarni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorini qayd etish mumkin. Unga ko‘ra, harbiy xarajatlarni qoplash uchun soliqlardan tashqari, yana bir qator yig‘imlar ham joriy qilinib, ular ushbu jadvalda aks ettirildi⁶³:

T.R	Soliq turlari	Rejada	Amalda
1	Qurilish soliqlari	18.832 r	17.823 r
2	Yer rentasi	18.569 r	14.011 r
3	Transport vositalari soliqlari	388 000 r	206 000 r
4	Ommaviy xordiq maskanlaridan olingan soliqlar	1662 r	1729 r
5	It egalaridan registratsiya yig‘imi	-	-
6	Kinoqurilmalardan olingan soliqlar	9088 r	10602 r

Urush yillarida aholidan belgilangan soliqlardan tashqari davlat poshlinasi ham undirilgan. Ya‘ni davlat poshlinasi SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942-yil 10-apreldagi “Davlat poshlinasi stavkalari to‘g‘risida” gi qaroriga ko‘ra undirilgan⁶⁴. Umuman, 1941-1945-yillarda soliqlarning turlari va ularning miqdori oshib borgan bo‘lsada, asosan, quyidagi soliqlar va yig‘imlar amalda bo‘lgan va ularning bajarilishi quyidagilarda aks etgan:

I. Korxona va tashkilotlarning daromad solqlari hamda boshqa yig‘imlari: 1. Kolxozlardan olingan daromad soliqlari 2. Iste‘mol kooperativlarining daromad soliqlari. 3. Sanoat va hunarmandchilikdan undirilgan daromad soliqlari. 4. Nogironlar kooperativlarining daromad soliqlari. 5. Turli to‘lovchilardan daromad soliqlari (подходный налог с прочих плательщиков). 6. Notovar operatsiyalar uchun soliqlar (налог с нетоварных операций)⁶⁵.

II. Aholidan yig‘ib olingan umumiy soliqlar va yig‘imlar: 1. Qishloq xo‘jaligi soliqlari. 2. Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan ishchi va xizmatchilardan

⁶⁰ Дусчанов Р. Икинчи жаҳон уруши йиллари совет давлатида солиқлар ва уларда белгиланган тартиблар / “Ўрта Осиё халқлари тарихининг долзарб масалалари” мавзусидаги Халқаро илмий конф. материаллари тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 299-300.

⁶¹ Справочник по налогам и сборам населения. – М., 1973. – С. 86.

⁶² О‘зМА, R-837-fond, 1-ro‘yxat, 369-yig‘majild, 8-varaq.

⁶³ О‘зМА, R-93-fond, 20-ro‘yxat, 4-yig‘majild, 88-varaq.

⁶⁴ Сборник законов Узбекской ССР и Указов Президиума Верховного Совета Узбекской ССР (1938-1971 гг.). – Ташкент, 1972. – С. 412.

⁶⁵ О‘зМА, R-93-fond, 15-ro‘yxat, 4-yig‘majild, 36-varaq.

madaniy-maishiy qurilishlar ehtiyoji uchun yig'img'lar. 3. Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi ishchi va xizmatchilardan madaniy-maishiy qurilishlar ehtiyoji uchun yig'img'lar. 4. Yakka xo'jaliklarda saqlanuvchi otlardan undirilgan soliqlar (Налог на лошадей единоличных хозяйств). 5. Aholining daromad soliqlari. 6. Harbiy soliq.

III. 1. Davlat zayomlari. 2. Natural to'lovlar. 3. Pul tushumlari. 4. Mashina traktor statsiyalaridan tushgan boshqa tushumlar⁶⁶.

Bu davrda turli soliqlar dehqonlardan umumiy miqdorda olingan bo'lsa, ishchi va xizmatchilar progressiv daromad stavkasiga qarab olindi. Masalan, ish haqi 300 rubldan ortiq bo'lmagan ishchi va xizmatchilar daromad solig'iga qo'shimcha ustama to'lashdan butunlay ozod qilindi. 300 rubldan 500 rublgacha ish haqi uchun 50 %, 500 rubl va undan ortiq ish haqi uchun 100 % ustama solig'i belgilandi. Qo'shimcha daromad solig'ining eng yuqori stavkalari yoshiga ko'ra haqiqiy xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan, ammo safarbar qilinmagan yoki chaqiriqdan ozod qilingan ishchi-hizmatchilarga nisbatan qo'llanildi. Ularning bir oylik ish haqi 300 rublgacha bo'lganda 100 %, 300-500 rubl bo'lganda 150 %, 500 rubldan ortiq bo'lganda 200 % qo'shimcha ustama solig'ini tashkil etdi.

Umuman, ikkinchi jahon urushi yillaridagi sovet davlati soliq tizimining asosiy funksiyasi, asosan, davlatning barcha moddiy va moliyaviy manbalarini frontga safarbar etish bo'lganligini qayd etish mumkin. O'zbekistondan to'plangan mahalliy soliqlar va yig'img'lar ham asosan harbiy izga yo'naltirilib, qizil armiyani va xalq xo'jaligin moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy manbasi bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya uchinchi bobining uchinchi paragrafi "*Soliq sohasida kadrlar masalasidagi murakkabliklar va uning oqibatlari*" deb nomlanib, unda sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlash masalalari, kadrlarning qo'nimsizligi, ularning bilim va malakasi bilan bog'liq masalalar tahlil etilgan. Haqiqatdan ham har bir davlatda ma'lum bir sohani rivojlantirish boshqaruv tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilishi va kadrlar masalasiga chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Shu munosabat bilan, sovet hokimiyati moliyaviy jarayonlarni boshqarishda, ya'ni soliq va yig'img'lar sohasida xodimlar doimo aholi bilan ishlashini inobatga olib, yetuk va tajribali mutaxassis kadrlarni jalb qilishga harakat qilgan.

Bu davrda Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari soliq tizimiga e'tibor qaratilsa, soliq masalalari Turkiston Avtonom Respublikasi soliq tizimi bilan deyarli bir xil bo'lgan. Faqatgina har ikkala davlatda ham hali xonliklar davridagi ushr, zakot soliqlari saqlanib qolgan bo'lib, soliqlar asosan "amlokdor"lar tomonidan yig'ib olinar edi⁶⁷. Tizimdagi asosiy muammolardan biri kadrlar masalasi bo'lib, BXSR va XXSR dagi soliq tizimi kadrlarining to'la komplektatsiya qilinmaganligi natijasida tizimda 30 % kadrlar qolgan, xolos. Qolgan 70 % kadrlar esa ishdan bo'shagan yoki chetlatilganligi arxiv hujjatlarida keltirilgan⁶⁸.

Sovet Ittifoqi tashkil etilganidan keyin, 1923-yilda SSSR Moliya xalq komissarligi tashkil etiladi. Moliya xalq komissarligi unga bo'ysunuvchi kollegiya va

⁶⁶ O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 4-yig'majild, 36-37-varaqlar.

⁶⁷ O'zMA, R-93-fond, 1-ro'yxat, 202-yig'majild, 1-varaq.

⁶⁸ O'zMA, R-93-fond, 1-ro'yxat, 202-yig'majild, 4-varaq

12 ta boshqarmadan iborat bo‘lib, shundan to‘rtinchisi Davlat soliq boshqaramasi ekanligi⁶⁹ – qayd etiladi. Umumiy bo‘lim, to‘g‘ri soliq va yig‘imlar bo‘limi hamda egri soliqlar bo‘limlaridan iborat bo‘lgan⁷⁰. Viloyat moliya bo‘limi haqidagi nizomda 8 ta bo‘limdan oltinchisi soliq bo‘limi⁷¹ sifatida keltirilgan. Uyezd moliya bo‘limi 4 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, buning tarkibiy tuzilishida ikkinchi o‘rinda soliq bo‘limi keltirilgan⁷². Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, soha eng yuqoridan uyezd bo‘limigacha bo‘lgan, ya‘ni quyi bosqichgacha markaz andozasi sifatida shakllantirilgan.

Tahlil etilayotgan davrda sohada malakali kadrlar yetishmasligi, ular orasida mahalliy millat vakillarining kamligi, yevropalik xodimlar soliq undirishda mahalliy aholi bilan to‘la til topa olmasliklari oqibatida bir qator murakkabliklar yuzaga kelgan edi. Bundan tashqari, markaziy apparatda ham malakali kadrlar yetishmasligi tizimni boshqarishda qator muammolarni keltirib chiqardi. Jumladan, 1924-1925-yillarga oid arxiv ma‘lumotlarida keltirilishicha, dastlab Turkiston ASSR, keyinchalik O‘zbekiston SSR soliq boshqarmasida 35 kishi (shtat birligi), viloyat soliq bo‘limlarida 139 ta, jami 173 ta kadr faoliyat yuritgan⁷³.

SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining 1930-yil 24-fevraldagi soliq inspeksiyasi to‘g‘risidagi farmoni bilan moliyaviy inspeksiya soliq inspeksiylariga aylantirildi hamda nazorat apparati tugatilgan. Soliq inspeksiyasi shahar va tuman moliya bo‘limlarining yagona tarkibiy bo‘linmasiga aylangan⁷⁴. Shundan keyin davriy matbuotda berilgan “Soliq va sug‘urta apparatining qayta tuzilishi” nomli maqolada har bir tuman (shahar) moliya bo‘limida bosh soliq inspektori qo‘l ostida soliq inspeksiyasi tashkil qilinishi ko‘rsatilgan. Bosh soliq inspektorlari, uchastka soliq inspektorlari va soliq inspektorlarining muovnlari mansabiga tayin qilinadigan kadrlar sovet hokimiyatiga astoydil berilgan, siyosiy jihatdan tayyorgarligi yuqori bo‘lgan va ish jarayoni bo‘yicha sinalgan bo‘lishi shartligi aytilgan⁷⁵.

Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan so‘ng ittifoq miqyosida boshlangan umumiy harbiy safarbarlik, davlat tashkilotlarining biri bo‘lgan moliya tizimidagi soliq sohasiga ham taalluqli bo‘ldi. 1941-yilning iyul oyidan boshlab soliq xodimlari ham frontga yuborila boshladi. Soliq sohasi xodimlarining katta qismini janglarga jalb etilishi oqibatida tizimda yana kadrlar yetishmovchiligi avj oldi. Buning ustiga jamiyat hayotida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar negizida amalga oshirilgan o‘zgarishlar, jumladan, kartochka tizimining kiritilishi, yangi turdagi soliqlarning joriy etilishi (bo‘ydoq, yolg‘iz va farzandsiz fuqarolaridan olinadigan soliqlar) bilan bog‘liq jarayonlar negizida soliq xodimlarining ish ko‘lami yanada oshib ketdi. Bu, o‘z navbatida, kam sonli xodimlar bilan faoliyat yuritgan soliq sohasining ishiga salbiy

⁶⁹ Земцов А.А. История финансовой системы России. – Томск, 2001. – С. 19.

⁷⁰ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘majild, 12-varaq.

⁷¹ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 2-yig‘majild, 127-varaq.

⁷² O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 2-yig‘majild, 144-varaq.

⁷³ O‘zMA, R-93-fond, 1-ro‘yxat, 91-yig‘majild, 138-varaq.

⁷⁴ Пушкарева В.М. Налоговая система Союза ССР (1921-1930). Учебное пособие. – Москва: Вузовский учебник, 2011. – С. 124-125.

⁷⁵ СССР Халқ Комиссарлари Советида. Солиқ ва страхования аппаратининг қайта тузилиши // Қизил Ўзбекистон. – № 106. – Б. 2.

ta'sir o'tkazdi.

Umuman aytganda, XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillarda O'zbekistonda o'tkazilgan iqtisodiy o'zgarishlar, jumladan, qishloq xo'jaligidagi "islohotlar" jarayonida aholidan soliqlarni yig'ish borasida bir qator murakkabliklar yuzaga keldi. Ayniqsa, boy dehqon xo'jaliklarini tugatish borasida o'tkazilgan tazyiqlarda soliqlardan foydalanish, soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik holatlarining ro'kach qilinishi kuzatildi. Tahlil etilayotgan yillarda sohadagi eng asosiy muammolardan biri tizimni malakali kadrlar bilan ta'minlash bo'lib, bu masala doimiy ravishda dolzarbligini saqlab turdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida soliq sohasi xodimlarining frontga jalb qilinishi esa, bu masalalarni yanada murakkablashishiga olib keldi.

XULOSA

Dissertatsiya ishi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, Sovet hokimiyatining olib borgan soliq siyosatining asosiy maqsadi budget daromadini to'ldirish bo'lib, unda dastlabki davrlardagi to'g'ri va egri soliqlar bo'yicha qilingan o'zgarishlar bunga misol bo'la oladi. Ayniqsa, soliq sohasida olib borgan islohotlari natijasida qabul qilingan aylanmadan olinadigan soliq va foydadan ajratmalar bo'lib bular budgetning daromad manbayi hisoblangan;

Ikkinchidan, O'zbekiston SSR tuzilgandan so'ng sovet hokimiyatining byudjet daromadidagi soliqlarning ulushi doimiy ravishda yuqori bo'lib kelganligi arxiv hujjatlarida keltirilgan. Bunda xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy sohalariga ajratiladigan mablag'lari ham davlat byudjeti hatto mahalliy byudjetdan qancha miqdorda ajratilishi yuqoridan ko'rsatilgan rejalar asosida amalga oshirilganligi budgetning tasdiqlanish jarayonida qaysi soliq va yig'implardan qancha qismi qoldirilishi belgilab berilganligi buning isbotidir;

Uchinchidan, "Harbiy kommunizm" siyosati yillarida soliqlarning o'ziga xosligi va "Yangi iqtisodiy siyosat" yillarida soliqlarning sovet tuzumi tartiblariga moslashtirilishi O'zbekiston SSRda soliq tizimi o'sha davr iqtisodiy, moliyaviy muammolarni hal qilishga xizmat qilib kelganligini tasdiqladi. Yer-suv islohoti va qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish yillarida sovet hokimiyatining soliq sohasidagi siyosati soliq tizimi xususida obyektiv xulosalar chiqarish imkoniyatini berdi;

To'rtinchidan, ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda soliq tizimining urush manfaatlariga bo'ysundirilishi urush yillarida soliqlarning frontga va front ortida xalq xo'jaligini tiklash hamda rivojlantirishga yo'naltirilgani xalq xo'jaligining iqtisodiy va moliyaviy ahvolini ko'tarishga xizmat qilganligini tasdiqladi. Mahalliy soliqlar va yig'implar, asosan, harbiy izga yo'naltirilganligi, bu esa, o'z navbatida, Sovet davri soliq tizimidagi majburiy va qo'shimcha to'lovlarni amalga oshirishda qator ziddiyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lganligini ko'rsatdi. Respublika aholisining yoppasiga front uchun majburiy soliq va yig'implarni to'lashga tortilgani murakkab hamda og'ir kechdi. Ammo respublika aholisining baynalminal uyushqoqligi urushda g'alaba qozonilishiga munosib hissa bo'lib qo'shildi;

Beshinchidan, sovet davri xo'jalik tizimi ming yillar davomida shakllangan bozor iqtisodiyoti tajribalarini va xususiy mulkchilik an'analarini yo'qqa chiqardi. Natijada O'zbekistonda soliq sohasi sovet xo'jalik yuritish tuzumining reja va

dasturlariga xizmat qilib keldi. Ayniqsa, soliq tushumlari byudjet va moliya jamg'armasini to'ldirishga, moliyaviy boshqaruvni shakllanishiga, respublikani markazning qishloq xo'jaligi sanoati uchun xomashyo bazasiga aylanishiga xizmat qilganligini tasdiqladi.

Oltinchidan, yagona monopoliyaga asoslangan soliq tizimi XX asrning 20-yillaridan to 40-yillar o'rtalarigacha bo'lgan davrda respublikada sovet tuzumining rejali moliyaviy-iqtisodiy tizimini saqlab qolganini ko'rsatdi. Tadqiqotda Ikkinchi jahon urushi yillarida davlatning soliq organlari orqali soliqlarni hisobga olish, undirish, qayd etish, to'lovlarni byudjetga tushishini ta'minlash qat'iy tartibda olib borilganligini tasdiqladi. Tadqiqotlarga ko'ra, sovet hukumati soliqlar tushumini reviziya qilish va tekshirishlarni olib borish, aholidan tushgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishlarini olib borganligi dalillandi;

Yettinchidan, tadqiqotlar sovet davrida soliqlarni yig'ib olishda qat'iy boshqaruvga asoslangan vositalar muhim rol o'ynaganligini, ammo kadrlar sohasida yetarli muammolar mavjudligini, ayniqsa, mahalliy millatga mansub kadrlar yetishmasligi, tizimni tashkil etish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, umuman xo'jalik yuritishning boshqa sohalaridagi kabi soliq sohasida ham ayrim salbiy holatlarni yuzaga chiqardi;

Sakkizinchidan, Sovet davri soliq qonunchiligi sohaviy yo'nalishlar bo'yicha murakkab tarmoqlarga ega ekanligini, bu tizim daromad solig'i, mahalliy soliqlar, qishloq xo'jaligi solig'i va davlat, yig'im va bojlari, patentlar, poshlina kabi majburiy to'lovlarda aks etganligini tasdiqladi;

To'qqizinchidan, sovet davlatining soliq siyosatidagi kamchiliklardan biri bu kadrlar masalasi bo'lib, kadrlarning qo'nimsizligi, oliy ma'lumotga ega emasligi, mahalliy millat vakillarining kamligi, ayniqsa, bu davrdagi yetuk kadrlarning qatag'on qilinishi soha taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot xulosalari asosida *quyidagi taklif va tavsiyalar* ilgari surildi:

1. O'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixining sovet davriga oid tarixini yanada mukammal o'rganish nuqtayi nazaridan yaratilayotgan darslik hamda o'quv qo'llanmalarda 1917-1945-yillarga tegishli soliqlar tarixi uchun maxsus fasl va boblar ajratish;

2. Tarix fani chuqur o'qitiladigan universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari hamda boshqa turdosh oliy o'quv yurtlarida "Soliqlar tarixi" muzeylarini tashkil etish;

3. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda mavzuga oid mahalliy hamda xalqaro doirada grant loyihalarini amalga oshirish, ularni nazariy-metodologik nuqtai nazaridan yanada boyitish va targ'ib qilish, bu borada xorijiy OTM lar bilan hamkorlik aloqalarni yo'lga qo'yish;

4. O'zbekistonda soliqlar tarixi mazmun-mohiyatini o'zida aks ettirgan, xalqaro tillarga "Yandex translate" tizimi orqali tarjima qilish imkoniyatini beruvchi mobil ilova dasturlarini ishlab chiqish hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib qilish zarur.

**УЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/2025.27.12.Tar.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ГОИБНАЗАРОВ ИСО ШАКАРОВИЧ

**НАЛОГОВАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В
УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ПОСЛЕДСТВИЯ
(1917–1945 годы)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована за номером B2018.1.PhD/Tar 267 в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (<http://ik-tarix.nuu.uz>) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Обломуродов Наим Халимович
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Ерметов Авазбек Абдуллаевич
доктор исторических наук, профессор

Муминов Нозим Гаффорович
кандидат экономических наук, профессор

Ведущая организация:

**Ташкентский государственный
аграрный университет**

Защита диссертации состоится «5» 10 2026 года в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc. 03/2025.27.12.Tar.01.01 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Мирзо Улугбека, Национальный университет Узбекистана, исторический факультет, 1 этаж, аудитория 106). Тел.: (+99871) 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24; e-mail: pauka@nuu.uz. Национальный университет Узбекистана).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за номером 200). (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, дом 4. Главное здание. Тел.: (+99871) 236-46-55; факс: (+99871) 246-02-24.)

Автореферат диссертации разослан «22» 09 2026 года.

(Протокол реестра за номером 11/14 от «27» 09 2026 года).


Х.Э. Юнусова
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор исторических наук,
профессор


Ж.Э. Тогаев
Секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD), доцент

Н.У. Мусаев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Последовательные реформы, проводимые в мировом масштабе в налоговой сфере в XXI веке, направлены на развитие налогов и механизмов налогообложения на принципиально новых основах, повышение роли государства в формировании бюджетной системы и обеспечение её стабильности. В этой связи государствами осуществляются масштабные реформы по увеличению бюджетных, финансовых ставок и показателей, оптимизации налоговых льгот и государственных расходов, применению прогрессивной налоговой нагрузки, а также по формированию новых концепций налоговых льгот. Как свидетельствует опыт развитых государств, каждая страна, исходя из своих местных условий и возможностей, формирует собственную налоговую систему и развивает её на современных основах. Стремительные изменения, происходящие в мировом масштабе в системе налогов и налогообложения, служат формированию надёжной бюджетной базы государств посредством налоговых поступлений и способствуют их финансово-институциональному развитию.

В ведущих научно-исследовательских центрах развитых стран мира накоплен богатый опыт в области теоретико-методологических принципов налогообложения, истории налогов и современных механизмов их применения. Эффективное использование данного опыта порождает необходимость проведения научных исследований по теоретико-концептуальным основам налогообложения. В свою очередь, это ставит задачу изучения процессов, происходящих в налоговой сфере, с опорой на исторические источники, научные труды, статистические данные и архивные материалы. Всё это в будущем послужит основой для формулирования необходимых выводов о дальнейшем развитии отрасли, задействовании её альтернативных стратегических возможностей, разработки и совершенствования её правовой базы.

В годы независимости, особенно в последнее время, масштабные реформы, осуществляемые в Узбекистане, требуют совершенствования государственного управления и проведения в нем качественных преобразований. Президент Республики Узбекистан был прав, когда сказал: «Мы должны научить нашу молодежь извлекать уроки из истории, делать выводы, вооружить её исторической наукой, историческим мышлением»¹. В Узбекистане, как и во всех других сферах, объективное изучение истории узбекского народа и его государственности играет важную роль в научном исследовании состояния налоговой системы в советский период, последствий проводимой правительством налоговой политики в Узбекистане, а также в объективном раскрытии характера государственной политики в налоговой системе того времени. Это служит созданию правдивого и объективного

¹ Mirziyoyev Sh.M. Ijtimoiy gumanitar fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. 19-yanvar, 2021-yil. <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-ijtimoiy-gumanitar-fanlar-rivoji-zamondan-ortda-qolmoqda/> (Murojaat qilingan sana: 16.12.2025).

осмысления данной сферы с точки зрения беспристрастного освещения истории узбекского народа и его государственности. Научное изучение исследуемой проблемы в качестве самостоятельной темы диссертации имеет важное значение не только для выявления социально-экономических аспектов системы, но и для объективного изучения состояния налоговой системы в советский период.

Настоящая диссертация вносит определённый вклад в реализацию задач, определённых Указом Президента Республики Узбекистан от 13 февраля 2018 года № Ф-5214 «Об организационных мерах по коренному совершенствованию налогового законодательства», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 26 июня 2018 года № ПК-3802 «О мерах по коренному совершенствованию деятельности органов государственной налоговой службы», Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также в иных нормативно-правовых документах, принятых в рамках «Стратегии Узбекистан — 2030».

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в рамках программы развития науки и технологий республики «Духовно-просветительское, культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Налоговая сфера в Узбекистане имеет длительную историю развития и прошла через различные этапы становления. В этом контексте особого внимания заслуживает история налогов советского периода, наряду со всеми другими историческими эпохами. В диссертации признано целесообразным анализировать литературу и исследования по данной теме, разделив их на три следующие группы: литература, изданная в советский период; исследования, осуществлённые в годы независимости; труды зарубежных авторов².

Связь темы исследования с научно-исследовательскими работами высшего учебного заведения, в котором выполняется диссертация. Диссертация выполнена в рамках проекта научно-исследовательских работ Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Цель исследования. Целью исследования является изучение налоговой политики советской власти в Узбекистане и её последствий.

Задачи исследования. Исходя из цели исследования, в качестве основных задач диссертации определены следующие:

- раскрыть источниковую базу и историографию темы;
- осветить социально-экономическую ситуацию в Туркестане и изменения в налоговой политике в начальный период установления советской власти;
- исследовать подчинение налогового управления военным интересам в период политики «Военного коммунизма» в Туркестанской АССР и его

² Степень изученности темы подробно освещена в параграфе 1.1. данного исследования.

последствия;

- проанализировать приспособление налогов к порядкам советского строя в Туркестанской АССР, ХНР и БНР, а также их результаты;

- исследовать изменения, проведённые в налоговой сфере в процессе централизации финансовой системы Узбекистана в 1925–1939 годах, и их последствия;

- изучить вопросы приспособления налоговой системы к военным целям в годы Второй мировой войны;

- выявить сложности в кадровом вопросе в налоговой сфере и их последствия.

Объектом исследования являются налоговая политика советской власти в Узбекистане и вопросы, связанные с её характером.

Предметом исследования являются противоречия и проблемы в налоговой системе в годы советской власти, политика центра по реформированию налоговой сферы и её последствия.

Методы исследования. В исследовании применялись принципы научности, историзма, беспристрастности (объективности), исторического анализа и сравнительного сопоставления, а также принцип исторической хронологической последовательности.

Научная новизна исследования состоит в следующем:

